

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС



Последние
новости

Последние
образование

Последние
исследование

И НОВЫЕ НАУКИ



Международный современный научно-практический журнал

Научный импульс

№ 3 (100)
Октябрь 2022 г.

Часть 1

Издается с августа 2022 года

Москва 2022

СОДЕРЖАНИЕ:

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
ILK BOLALIK DAVRLARIDA PSIXIK TARAQQIYOT. 3-7 YOSHDA KECHADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR Toshqulova Diyora Ahror qizi	21
АНАЛИЗ СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ БАСНЕЙ ЭЗОПА И РАССКАЗОМ СОМЕРСЕТА МОЭМА «МУРАВЕЙ И КУЗНЕЧИК» Пулатова Сабина Шарифовна, Вохидова Мохинур Нусратилло кызы	24
ЎСМИРЛАРНИНГ ҲУЛҚ-АТВОРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ Раҳмонов Абдумалик Ўлмас ўғли	31
РАХТА ТОЛАСИНИ АРРАЛИ ЖИНЛАРДА АЖРАТИШ. АРРАЛИ ЖИНЛАРДА БО'ЛИШИ МУМКИН БО'ЛГАН НОСОЗЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ БАРТАРАФ ЕТИШ УСУЛЛАРИ Xidirova Durдона Olim qizi Abdushukurova Ma'mura Abdulla qizi	37
SO'FIZODA - YO'LCHI YULDUZ Gulnavoz Mamadaliyeva	40
ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ВЯЗКОСТНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МОТОРНЫХ МАСЕЛ НА РАБОТУ ДЕТАЛЕЙ ДВИГАТЕЛЯ Алимова Зебо Хамидуллаевна Собирова Дилором Кобуловна Шамансуров Бахтиёр	44
YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVIYATLI, MUSTANKAM E'TIQODLI, YUQORI MALAKALI MUTAXASSIS DARAJASIGA YETKAZISHDA ONA TILIMIZNING O'RNI Sadoqat Homidjonova	48
ПОВЫШЕНИЕ ТЯГОВО-СЦЕПНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТРАКТОРОВ СДВОЕННЫХ КОЛЕСНЫХ ШИН Йигиталиев Жалолдин Адхамжон угли	52
SANGINA, PASTEL MATERIALLARIDAN FOYDALANISH Abdumutalov Xasanboy Doniyorbek o'g'li	60
СОҒЫСТЫҢ АЯУСЫЗ ҚАҒАРЫ Асем Ерғали қызы Абдурахманова	65
QADRING BALAND BO'LSIN-ONA TILIM ! Varayeva Fazilat Shuhratovna	69
INKLYUZIV TA'LIMDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLAR Alimova Gulnora Hamzayevna	72
SIMSIZ KENG POLOSALI ALOQA TIZIMLARINING RIVOJLANISHI Eshonqulov Almurod Axmad o'g'li	81
KOMPYUTER DASTURLARINING RIVOJLANISHI	85

NEFT VA GAZ KONLARINI QAZIB OLISH VA FOYDALANISH KASBI HAQIDA BATAFSIL MA`LUMOT Yo'Ichiboyev Husan Mirzohidjon o'g'li	565
OPTIMIZATION OF PRODUCTION COSTS BY REDUCING LABOR STANDARDS AND TIME STANDARDS IN THE DEVELOPMENT ENTERPRISE Kamilova Anora Nasirovna	570
SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA A`ZO MAMLAKATLAR XALQLARINING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING ROLI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMI Avazova Parvinaxon Zokir qizi	574
MAMLAKATIMIZ YO'L XO'JALIGI TIZIMIDA MAVJUD KAMCHILIKLAR VA BU TIZIMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI Qulmamatova Barno Omonovna	577
MEDIA DISCOURSE FEATURES Jurayeva Maftuna Erkin qizi Pulatova Kamilla Andreyevna Yusupova Sabohat A'zamjonovna Usmonov Farhod Faxriddinovich	581
ОСОБЕННОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ КРИВЫХ УЧАСТКОВ ДОРОГ В ГОРНЫХ УСЛОВИЯХ Махмудова Дилфуза Абдулазизовна Одилова Ёркиной Дониёр қизи	586
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA Ataullaev Fazliddin Faxriddin o'g'li	591
ИЛК МАЪНАВИЯТ УНСУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНИШИ, ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИЁТИ, МАРОСИМЛАР МАЪНАВИЯТИ С. Х.Худойназаров Маннанова Наргиза Хайдаровна	597
ОЦЕНКА ДИНАМИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРИ ВЫНУЖДЕННЫХ КОЛЕБАНИЯХ ВИСЯЧИХ ПОКРЫТИЙ Сабиржанов Толибжон мамасолиевич Гаппаров Кодиржон Гуломович	604
QANDLI DIABET KASALLIGINING II TIPI BO'YICHA KASALLANISH HOLATLARI. Rajabboyeva Marjona Odinaevna	609
KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN O`RNI Qobilova Nargiza Sulaymonovna Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich	613
СЕМЕЙНАЯ ТЕМА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И. С. ТУРГЕНЕВА Касимов Азиз Бердимуратович Тухтаева Лаура Рустамовна	626

KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN O`RNI

Qobilova Nargiza Sulaymonovna,

Buxoro Davlat Universiteti PhD, dotsent

Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Tilshunoslikda metaforalar talqiniga bo`lgan munosabat ushbu fan rivojlanishining chuqur ildizlariga borib taqaladi. Ammo zamonaviy tilshunoslik sohalari paydo bo`lishi bilan bir qatorda ushbu masalaga bo`lgan yondashuvlar va talqinlar ham o`zgarib bormoqda. Ushbu maqolada tilning ma`noviy bezaklari bo`lmish metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlar til materiallari asosida keng tahlil qilinadi hamda uning til taraqqiyotida, xususan tarjimadagi o`ziga xos o`rinlari ustida so`z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *konseptual metafora, konsept, konseptual integratsiya nazariyasi, orientatsion metafora, ontologik metafora, strukturaviy metafora, lingvokulturema.*

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕЧИ

Кабилова Наргиса Сулеймановна

БухГУ, доктор философии по филологическим наукам, доцент

Олломурадov Арджунбек Орифжонович

БухГУ, магистрант

Аннотация: *Отношение к интерпретации метафор в языкознании восходит к глубоким корням развития этой науки. Но вместе с появлением современных лингвистических полей меняются и подходы и трактовки этого вопроса. В данной статье на основе языковых материалов подробно анализируются когнитивные и лингвокультурологические особенности метафор, являющихся духовными украшениями языка, и обсуждается их особое место в языковом развитии, особенно в переводе.*

Ключевые слова: *концептуальная метафора, концепт, теория концептуальной интеграции, ориентационная метафора, онтологическая метафора, структурная метафора, лингвокультурализм*

LINGUISTIC AND COGNITIVE CHARACTERISTICS OF CONCEPTUAL METAPHORS AND THEIR ROLE IN LANGUAGE DEVELOPMENT

Qobilova Nargiza Sulaymonovna

Bukhara State University PhD, associate professor

Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich

Bukhara State University 2nd year master student

Abstract: *The relationship to the interpretation of metaphors in linguistics goes back to the deep roots of the development of this science. But along with the emergence of modern linguistic fields, approaches and interpretations to this issue are also changing. In this article, the cognitive and linguistic and cultural features of metaphors, which are the spiritual decorations of the language, are extensively analyzed on the basis of language materials, and their special place in language development, especially in translation, is discussed.*

Key words: *conceptual metaphor, concept, conceptual integration theory, orientational metaphor, ontological metaphor, structural metaphor, linguculturalism.*

KIRISH

Tilshunoslikning qadimgi rivojlanish tarixidan buyon metaforalar talqiniga boʻlgan munosabat uning falsafiy tahlillariga koʻra farq qilib, koʻproq metaforalashgan mexanizmlarning grammatik, semantik, leksik hamda stilistik jihatlariga qarab tahlil qilingan. Zamonaviy tilshunoslikda esa metaforalarning antropotsentrik paradigmalarda talqinidan kelib chiqqan holda tafakkur va inson omili bilan bogʻliq xususiyatlari eʼtibor markaziga qoʻyilmoqda. Til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan bogʻliq yangi gʻoyalar shakllanish mexanizmini aniqlashdagi ustuvor omildir. Maʼlumki, ushbu masalalar ayniqsa tillarning lingvomadaniy aspektida yaqqol namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metaforalarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, yondosh koʻchimlardan farqli jihatlari, ornamental, prakseologik xususiyatlari hamda falsafiy paradigmasini aniqlash borasida N.Arutyunova, M.Blek, P.Rikyor, E.Kassirer, R.Yakobson va E.MakKormaklar ilmiy tadqiq qilganlar. Shuningdek, J.Lakoff, M.Jonson, Ye.Gogonenkova, Ye.Akishina, N.Sarbonel, G.Ermolenko, I.Polozova, M.Merleau-Ponty, V.Pustovalova, D.Montminy, Ye.Reshetnikova, Ye.Malishkin va D.Ashurovalar konseptual metafora tushunchasining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini ochib berganlar. Oʻzbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiev, M.Mamadaliyeva va G.Qobuljonovlar oʻzbek tili materiali asosida metaforaning milliy-madaniy, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini tadqiq etishgan.

Maqolada konseptual metaforalarning tuzilishi, shakllari, ularning lingvistik ahamiyati hamda til taraqqiyotida tutgan o`rni muhokama qilinadi. Ularning linvomadaniy va kognitiv xususiyatlari misollar asosida keng yoritiladi. Ikki til (o`zbek va ingliz) konseptual metaforalarning lingvistik diskurs hamda tarjima jarayonidagi mohiyati keng ko`lamli tasvirlar asosida tahlil qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ma`lumki, metaforalar haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo`lgan. “Metafora hosila ma`no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd qilinishicha, hosila ma`no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma`no referentlari o`zaro o`xshash kelishiga asoslanadi”.⁵³O`tgan asrning so`nggi choragida ma`no ko`chishining keng tarqalgan usullaridan biri bo`lgan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatida ham asosiy o`rinni egallashi g`oyasi ilgari surib kelinmoqda. Bu boradagi qarashlarda taniqli olimlar J. Lakoff va M. Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to`g`risidagi tadqiqot tub burilishga sabab bo`ldi. Metaforalar insonlar uchun poetik tasvir va ritorik o`shishning o`ziga xos mehanizmi vazifasini o`taydi. Shuningdek, metaforalarga aslida tafakkur va bilish faoliyatining mahsulidan ko`ra tilning o`ziga xos bezagi sifatida qaraladi. Ammo kundalik hayotda buning teskarisi ekanligi namoyon bo`ladi. Shuning uchun metaforalar faqatgina til xodisasigina bo`lib qolmay, balki inson tafakkuri va bilish faoliyatining asosiy va ajralmas qismini tashkil qiladi. J. Lakoff va M. Jonson : “Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o`z mohiyatiga ko`ra metaforikdir”,- deb ta`kidlagan edilar.⁵⁴Inson nutqida metaforalarning tez –tez uchrab turishi mazkur mehanizmning ma`lum bir sistema yoki tizim asosida o`rganilishi kerakligini taqozo etgan. Shuning uchun ham olimlar ularni alohida tizimlarga bo`lgan holda tahlil qilib, “metaforik konseptlar” yoki “konseptual metaforalar” dep atashgan. Misollar tahlili ushbu tushunchaning mohiyatini yaratishda muhim manba bo`lib xizmat qilgan. Jumladan, “baxs”, “sevgi”, “ilm”, “baxt”, “ishonch” hamda “urush” kabi bir qancha mavhum konseptlarning inson tafakkurida qanday ma`lumotlar manbai asosida shakllanishi aynan metaforizatsiya jarayoni bilan chambarchas bog`liqdir. Bu yo`lda esa avvalo konseptual va oddiy metaforalar tizimini bir biridan ajratish va farqlash zarurdir. Konseptual metaforaning kognitiv jihati o`rganilayotganda oddiy metaforalarda uchramaydigan bir qancha xususiyatlariga duch kelamiz. Ularni bir biridan farqlaydigan jihatlar talaygina bo`lib biz ularni quyidagi diagrammada yaqqol ko`rishimiz mumkin.

⁵³ Mirtojdiyev M. O`zbek tili semasiologiyasi.-Toshkent: Mumtoz so`z,2010-B.94

⁵⁴ Lakoff J, Jonson M . Metaphors we live by. Chicago, IL: The University of Chicago Press.

Jadval 1. Oddiy va konseptual metafora tafovutlari

Oddiy metafora	Konseptual metafora
Soʻzning maʼnaviy ahamiyati oddiy til birligi sifatida ochib beriladi: Ayol tulki	Konsept sifatida kognitiv tilshunoslikning bir boʻlagi: Baxs jang
Maʼlum bir soʻzning shunchaki koʻchma maʼnosi: Kumush qish	Til va tafakkur, oʻylash va bilish jarayonining mahsuli sifatida: Vaqt pul
Taʼsirchanlik hamda badiiy boʻyoqdorlikni oshirish maqsadida odatda adabiyot ahli tomonidan badiiy asarda bezak vosita sifatida qoʻllaniladi	Maʼlum bir konseptlar tizimini yanada yaxshiroq tushunish uchun odatda kundalik hayotda oddiy insonlar tomonidan ishlatiladi
Ikkita soʻzning oʻzaro maʼnaviy butunligi yoki bogʻliqligi: Hayot daraxt	Insoniyat tajribasi: Gʻazab bu olov

Kognitiv metaforalar nazariyasiga koʻra, metaforalashtirish asosida bilim tuzilmalari (freym va ssenariylar) oʻrtasidagi oʻzaro aloqa jarayoni yotadi. J.Lakoff hamda M.Jonson fikriga koʻra, verbal tuzilmada eksplisit ifodalanmagan mazmun freymilar haqidagi bilimlar asosida keltirib chiqariladi.⁵⁵ Hozirgi vaqtda esa kognitiv metaforalar nazariyasi koʻplab sohalarga tatbiq qilingan boʻlib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptualashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri boʻlib kelmoqda. Shuningdek, kognitiv metaforalar har bir millat vakilining tafakkuri mahsuli boʻlganligi sababli unda oʻsha xalqning lingvomadaniy merosi yohud izlari ham yashiringan boʻladi. Yaʼni har bir konseptual metaforani hosil qiluvchi konseptlarda til va madaniyat uygʻunligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Bunday oʻziga xosliklar esa tarjima jarayonida tarjimondan kata bilim va mahoratni talab qiladi. Lingvomadaniy birliklarni qiyoslashda yoki ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda oʻsha davr madaniyati, xususan, xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Masalan, oʻzbekcha tarjimada makkorlik anʼanaviy “tulki” emas, balki “kal” obrazi orqali shakllantirilgan ekan, ushbu holatda asliyatning davr talabiga eʼtibor qaratish lozim. Hozirgi davrda makkorlik va mugʻombirlik tulki feʼl atvoriga badiiy muqoyasa etilishi anʼanaviy tus olgan boʻlsada, oʻtmish oʻzbek adabiyotida, xususan, xalq ogʻzaki ijodida bu xulq “kal kirdikorlari”ga muqoyasa etilar edi.⁵⁶

Konseptual metafora nazariyasi mualliflari J.Lakoff va M.Jonsonlar ularni uch guruhga ajratishgan, yaʼni oriyentatsion metafora, ontologik metafora, strukturaviy metafora. Oriyentatsion metaforalar insonlarning fikr mulohazalaridagi tasviriy ifodalar maʼlum bir joy yoki yoʻnalishga ishora berilishini anglatadi. Happiness is up, sad down metaforasida

⁵⁵Будаев Э.В. Метафора в политической коммуникации : монография. М, 2008.

⁵⁶Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari.Darslik. –Toshkent:Fan.2005.-B. 214-215

baxt tepada xafalik esa pastda ma`nosi anglashiladi bu esa o`zbek tilida boshi osmonga yetdi, boshi ko`kda metaforalarida qo`llaniladi.

Ontologik metaforalar ham konseptual metaforalarning navbatdagi turi bo`lib, mavhumlikning mavjudlikka aylanishini ta`minlaydi. Ideas are objects.

Strukturaviy metaforalar deganda, inson tafakkurida mavjud murakkab tizimli tushuncha orqali boshqa bir so`z mohiyati shakllanishini anglash mumkin. Love is journey.

XULOSALAR

O`rganilgan tadqiqotlardan shu ma`lum bo`ldiki, zamonaviy lingvistikada metaforalarning kognitiv jihatlariga kata etibor qaratilgan. Demak, insonning uzoq yillik hayot tajribasi, milliy-madaniy qadriyatlari, tarixiy kechinmalari hamda geografik joylashuvi metaforalarning shakllanishida muhim omil vazifasini o`taydi. Nutq ta`sirchanligi va ifodaviyligini oshirishga xizmat qiluvchi mazkur ko`chim chet tillarini o`rganuvchi va tarjimonlar uchun bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan metaforalarning tarjimasiga kognitiv yondashuv ularni insonlar tafakkuri va bilish faoliyatining mahsuli, uni konseptual ifodalovchi kognitiv konstruksiyalar sifatida ko`rish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. КОБИЛОВА Н. ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ПРИНЦИП ЭПИЧЕСКОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ АКАДЕМИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Автономная некоммерческая организация "Исследовательский центр информационноправовых технологий" ISSN: 2312-5519 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38533356>

2. 2. КОБИЛОВА NARGISA SULEYMANOVNA LITERARY PSYCHOLOGY AND STYLE THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944 eISSN: 2409-0085 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>

3. 3. КОБИЛОВА NARGISABEGIM SULAYMONBEKOVNA BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>

4. Kobilova, N. S. (2022). Promotion of Cooperative Learning Through TPR Activities. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 24–26. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/32>

5. Rasulov, Z. (2022). ОБ ОБЪЕКТЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4346

6. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943

7. Д. С, Ўраева, М.И, Гадоева. (2022). Халқ Маросимлари Ва Уларга Алоқадор Жанрларда Соматизмларнинг Поэтик Ифодаси. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 16–19. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/30>
8. Будаев Э.В. Метафора в политической коммуникации: монография. М, 2008.С.41.
9. Evans, V. and Green, M., *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
10. Kövecses, Z., *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.), New York: Oxford University Press, 2010.
11. Johnson, M., *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination and Reason*, Chicago: Chicago University Press, 1987.
12. Lakoff, G. & M. Johnson (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago, IL: The University of Chicago Press.
13. Mirtojiev M. O`zbek tili semasiologiyasi.-Toshkent: Mumtoz so`z,2010-B.94
14. 1. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Modern Methods of Translating Phraseological Units. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 153-158. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516>.
15. 2. Khudoyberdievna, S. Z. (2017). Didactic games as framework of students in cooperation. *Научный журнал*, (3 (16)), 48-50. <https://cyberleninka.ru/article/n/didactic-games-as-framework-of-students-in-cooperation>.
16. 3.Z Saidova., ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF MODULAR OBJECT-ORIENTED DYNAMIC LEARNING ENVIRONMENT (MOODLE) IN THE SYSTEM OF EDUCATION.https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4354. Saidova, Z.(2022). ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПСИХИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8 (8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4354.
17. 5.Saidova, Z.(2022). ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПСИХИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8 (8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4354.
18. 6.Khudoyberdievna, S. Z. (2021, November). Language Expressing Psychoemotional State of Human. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 2, pp. 108-113). <https://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/102>.
19. 7. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Classification of verbal phraseological units denoting the emotional state of a person. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 90-93.